



BOLA IDROKI VA TAFAKKURIGA MOS TIL BIRLIKLARINING  
TANLANISHI

**Bozorova Marjona Anvar qizi**

*NIU 70230101 – Lingvistika (O'zbek tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

*Email: bozorovamarjona81@gmail.com*

*ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-6699-9404>*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada bola auditoriyasiga mo'ljallangan matnlarda bola idroki va tafakkuriga xos til birliklari tanlanishi bilan bog'liq holatlar va bola auditoriyasiga mo'ljallangan matnlarda uning aks etishi kabi jihatlar namunalar asosida ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, bola idrokida tushunchalarning shakllanishi va bu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va bolalar auditoriyasi matnlari tahlil qilindi. Bola xotirasi va idrok imkoniyatlari darajasi bola auditoriyasiga mo'ljallangan matnlar misolida o'rganilib, umumiy xulosalar berildi.*

**Kalit so'zlar:** *bola idroki, tafakkur, publitsistik matn, xotira, psixolingvistika, she'r, sensomotor mantiq, konseptual mantiq.*

**Аннотация.** *В данной статье на примерах рассматриваются вопросы, связанные с отбором языковых единиц, специфичных для детского восприятия и мышления, в текстах, предназначенных для детской аудитории, и их отражением в текстах, предназначенных для детской аудитории. Кроме того, анализируется формирование понятий в детском восприятии, проведенные исследования по этой теме и тексты, предназначенные для детской аудитории. На примере текстов, предназначенных для детской аудитории, изучается уровень детской памяти и познавательных способностей, и делаются общие выводы.*

**Ключевые слова:** *Детское восприятие, мышление, журналистский текст, память, психоллингвистика, поэзия, сенсомоторная речь.*

**Abstract.** *This article examines the issues related to the selection of language units specific to children's perception and thinking in texts intended for children's audiences and their reflection in texts intended for children's audiences on the basis of examples. In addition, the formation of concepts in children's perception and the research conducted on this topic and texts intended for children's audiences were analyzed. The level of children's memory and cognitive abilities was studied using the example of texts intended for children's audiences, and general conclusions were drawn.*

**Keywords:** *child perception, thinking, journalistic text, memory, psycholinguistics, poetry, sensorimotor speech.*

**Kirish.** *Ma'lumki, bola idroki va tafakkuriga mos til birliklarining tanlanishi — onatolingvistika - bolalar nutqi lingvistikasi, psixolingvistika hamda kognitiv tilshunoslikning tutashgan nuqtasidagi muhim mavzu hisoblanadi. Bolaning yosh davrlariga*



ko'ra dunyoni idrok etish va fikrlash darajasi uning nutqida qo'llaniladigan til birliklarini leksik, semantik, sintaktik va pragmatik jihatdan saralab olishni va shakllantirishni taqozo etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bolaning kognitiv rivojlanishi uning tilni o'zlashtirishi va ishlatishiga bevosita ta'sir qiladi. Bu borada ikki asosiy konsepsiya yetakchi hisoblanadi:

L.S. Vygotskiyning "Tafakkur va nutq" nazariyasiga ko'ra, bolaning intellektual rivojlanishi va tushunchalar shakllanishi so'z ma'nosining rivojlanishi bilan parallel kechadigan holat hisoblanadi. Bola avval konkret mavjud tushunchalarni, so'ngra abstrakt va umumlashgan tushunchalarni o'zlashtiradi.<sup>7</sup>

O'rta asrlarda allaqachon bolaning holati kattalarnikidan farq qilishi qayd etilgan edi. Sulamif Shaxar "Kidheit im mittelalter" monografiyasida G'arbiy Yevropada XII asrdan O'rta asrlargacha bo'lgan bolalik etnografiyasini o'rganadi va butun bolalik davri ma'lum bir bosqichlarga bo'linishini tasvirlaydi<sup>8</sup>.

Biologik va ijtimoiy o'zaro munosabat haqidagi masalani shvetsariyalik psixolog Jan Piaje asosli ravishda izohlaydi. Jan Piaje asosiy e'tiborni bola tafakkurining namoyon bo'lishiga qaratadi. Olim yosh bolaning nutqi egosentrik bo'lib, kommunikativ funksiyalarni bajarmasligini aytadi: "Bu nutq egosentrikdir, chunki bola faqat o'zi haqida gapiradi... bola xuddi baland ovozda o'ylayotgandek o'ziga o'zi gapiradi. U hech kimga murojaat qilmaydi"<sup>9</sup>.

Piaje bolada tafakkur va tilning rivojlanishi uzluksiz ravishda emas, bosqichma-bosqich amalga oshirishini qayd qiladi. J.Piaje bolaning rivojlanishi ikki bosqichda amalga oshirishini ta'kidlaydi va intellektni birinchi planga chiqaradi:

- 1) sensomotor mantiq;
- 2) konseptual mantiq;

Tilning rivojlanishi umumiy intellekt o'zgarishlarini boshqaradi va intellektual rivojlanish tildan ta'sirlanadi. Birinchi sensomotor mantiq bosqichida bolada harakatlar mantiq'ini tushunishga yordam beradigan sensomotor intellekt rivojlanadi. Ikkinchi bosqichda harakatlar mantiq'idan konseptual mantiqqa o'tiladi. U bola hayotining ikkinchi yilida yuz beradi. Mazkur bosqichda bola tilni semiotik vosita sifatida o'zlashtiradi. U kattalarning imo-ishoralarini takrorlaydi va unda ramzlar funksiyasi rivojlanadi. Bolaning dastlabki so'zlari haqiqiy ramzlar emas. Chunki bu ramzlar ko'rilgan narsalar va hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Bolalar atroflarida mavjud bo'lmagan narsalar haqida gapirishni boshlaganda haqiqiy, asosiy ramzlarni qo'llay boshlaydilar<sup>10</sup>.

<sup>7</sup> Виготский Л. С. Мышление и речь. — М.: Лабиринт, 1999. — 352 с

<sup>8</sup> Shaxar S. Kidheit im mittelalter. — Hamburg: Reinbeck, 1993. -390b.

<sup>9</sup> Piaje J. РЕЧ и мышление ребенка.- Москва.1994.-с.17

<sup>10</sup> Piaje ж.схемы действия и усвоение языка// Семиотика. — Москва,1983-С.133-136.



**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, amaliy va diskursiv tahlil usullaridan foydalangan holda bolalar tafakkuriga mos til birliklarining tanlanishi va bola nutqining shakllanish jarayonlari o'rganildi va o'ziga xos jihatlar bo'yicha namunalar tadqiq etildi.

**Tahlil va natijalar.** Bola idroki atrof-muhitdagi ko'rib, ushlab, eshitib bo'ladigan obyektlarni osonroq idrok etadi. Shu sababli, abstrakt hamda umumlashgan terminologik leksika o'rniga bolaning bevosita tajribasida mavjud bo'lgan denotativ ma'noga ega til birliklari yetakchi o'ringa chiqadi.

Misol uchun oddiygina "transport vositasi" o'rniga "moshina" "oziq-ovqat" so'zi o'rniga "olma", yoki "sut" so'zlarini qo'llashi mumkin.

Yoki bola biror belgi, masalan, yumaloqlik asosida barcha o'xshash narsalarni bir so'z bilan ataydi: masalan, barcha to'pturda va yumaloq narsalarni "to'p" deb qo'llaydi.

Shuningdek, so'z ma'nosini faqat bitta muayyan obyektga nisbatan qo'llash ham bola nutqida keng qo'llaniladi. Masalan, faqat o'zining itini "it" deb bilgan holda boshqa itlarni esa bu turga kiritmasligi mumkin. Ushbu jihatlar ham bola nutqining o'ziga xos tomoni hisoblanadi.

Bola idroki va tafakkuriga mos til birliklarining tanlanishi hamda uning buzilishi yoki aksincha, bolaga moslashtirilgan uslubda yozilishi ko'plab matn turlarida o'z aksini topadi. Masalan:

"G'ing-g'ing etib uchar u,  
Gul bag'rini quchar u.  
— Hoy asalari, to'xtab tur,  
Menga ozroq shira ber!  
— G'ing-g'ing, vaqtim yo'q,  
Qornim hali to'q emas..."<sup>11</sup>

Ushbu parchada tovushga taqlid so'zlar "g'ing-g'ing" bolaning eshitish idrokiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Bolaning dunyoni idrok etishidagi egotsentrik va animistic, ya'ni jonsiz yoki hayvonot dunyosiga insoniy xususiyat berish, fikrlash xususiyatidan foydalanib, muloqot dialogik shaklda qurilgan hisoblanadi. Sintaktik jihatdan, qisqa-qisqa, ritmik, bir tarkibli va sodda gaplar zanjiri bola xotirasida axborotni uzoq saqlanishini ta'minlab beradi.

Yoki:

"Atrof-muhit obyektlarining fazoviy-vaqtinchalik va strukturaviy-funksional xususiyatlarini sistemali ravishda o'zlashtirish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kognitiv va emotsional-irodaviy sohasini differentsiyalashning asosiy sharti hisoblanadi."<sup>12</sup> Ushbu matn ilmiy-ommabop, pedagogik nashrdan olingan murakkab parcha hisoblanib,

<sup>11</sup> Muhammadiy Q. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. J. 1: She'rlar va ertaklar. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. — B. 64.

<sup>12</sup> Boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalar va kognitiv rivojlanish masalalari. Ilmiy-ommabop to'plam. — Toshkent: O'qituvchi, 2019. — B. 45.



matnda abstrakt va umumlashgan terminologik leksikalar, ya'ni strukturaviy-funksional, differentsatsiyalash, kognitiv-irodaviy jihatlar haddan tashqari ko'p.

L.S. Vygotskiy nazariyasiga ko'ra<sup>13</sup>, bola nutqi va idrokida tushunchalar konkret tajribadan abstraktlikka qarab rivojlanadi. Bu turdagi murakkab terminologik qurilmalar bola auditoriyasiga yoki bolalar uchun mo'ljallangan darsliklarga yo'naltirilsa, ushbu tushunchalar shakllanishida uzilish va bola ongida axborotni rad etish holati yuzaga keladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, ilk va maktabgacha yosh davrida bola tafakkuriga xos bo'lgan egotsentrizm va animizm hodisalari tilda tovushga taqlid so'zlar, jonlantirish hamda erkalash-kichraytirish affikslari -cha, -choq, -jon, -xon kabilar orqali aks etadi. Shuningdek, kognitiv rivojlanish jarayonida so'z ma'nosining haddan tashqari kengayishi va torayishi holati kabi semantik hodisalar tabiiy bosqich sifatida namoyon bo'ladi.<sup>14</sup>

Bola xotirasi va idrok imkoniyatlari murakkab mantiqiy zanjirlarni bir vaqtning o'zida qayta ishlashga moslashmagan bo'lib, shu sababli, bolaga yo'naltirilgan matn va nutqda murakkab ergashgan gaplar, sifatdosha, ravishdosha o'ramlar o'rniga to'g'ridan-to'g'ri so'z tartibiga ega sodda yoyiq gaplar va muloqotni rag'batlantiruvchi so'roq-undov konstruksiyalari tanlanadi.<sup>15</sup>

Xulosa shuki, bolalar uchun mo'ljallangan badiiy yoki ta'limiy matnlarda kognitiv va murakkab terminologik qurilmalarning me'yordan ortiq qo'llanilishi bola tafakkurida axborotni idrok etish va tushunish jarayonini qiyinlashtiradi hamda bola tomonidan axborotni qabul qilishda lingvopsixologik to'siqni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli bola auditoriyasiga mo'ljallangan matnlarda bola idroki va tafakkuriga xos til birliklari avval tanlanib, keyin qo'llaniladi.

## ADABIYOTLAR

1. G. Iskandarova. Nutqiy xulqning gender jihatdan xoslanishiga doir ba'zi mulohazalar // O'zMU xabarlar. — Toshkent.
2. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. — Toshkent, 2007. — 180 b.
3. Maccoby E. E. The Two Sexes: Growing Up Apart, Coming Together. — Cambridge: Harvard University Press, 1998. — 384 p.
4. Said Ahmad. Ufq. Trilogiya. — Toshkent: Sharq, 2008. — 480 b.
5. To'xtaboyev X. Sariq devni minib. Qissa. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1982. 256 b.
6. Кон И. С. Ребенок и общество. — М.: Наука, 1988. — 270 с.
7. Цейтлин С. Н. Язык и ребенок: Лингвистика детской речи. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. — 240 с.

<sup>13</sup> Выготский Л. С. Мышление и речь. — М.: Лабиринт, 1999. — С. 154–160.

<sup>14</sup> Цейтлин С. Н. Язык и ребенок: Лингвистика детской речи. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. — С. 84.

<sup>15</sup> Piaget J. The Language and Thought of the Child. — London: Routledge & Kegan Paul, 1926. — P. 52.